

**RAQAMLI DISKURS SHAROITIDA O'ZBEK YOZMA NUTQIDA
PUNKTUATSIYA TRANSFORMATSIYASI: NORMATIV VA
PRAGMATIK TAHLIL**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Filologiya kafedrası o'qituvchisi

Shoniyozova Gulshoda Baxromovna

Shoniyozovagulshoda@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya sharoitida o'zbek yozma nutqida punktuatsiya tizimining o'zgarishlari net-lingvistika doirasida tahlil qilinadi. Internet diskursida tinish belgilarining soddalashuvi, ortiqcha qo'llanishi, funksional kengayishi va emotsional-pragmatik yuklamasining ortishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda punktuatsiyaning sintaktik, semantik va intonatsion vazifalari raqamli muhitda qanday transformatsiyaga uchrayotgani misollar asosida ko'rsatib beriladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, internet nutqida punktuatsiya an'anaviy normativ modeldan qisman chekinib, kommunikativ tezkorlik va ekspressivlik tamoyiliga moslashmoqda.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, net-lingvistika, raqamli diskurs, tinish belgilari, internet nutqi, pragmatika, yozma muloqot, normativlik.

Abstract

This article analyzes the transformation of punctuation in Uzbek written discourse within digital communication from a net-linguistic perspective. The simplification, overuse, functional expansion, and emotional-pragmatic load of punctuation marks in online discourse are examined. The study demonstrates how the syntactic, semantic, and intonational functions of punctuation are reshaped in digital contexts. The findings indicate that punctuation in internet communication

partially departs from traditional normative models and adapts to principles of communicative speed and expressiveness.

Keywords: punctuation, net linguistics, digital discourse, punctuation marks, online communication, pragmatics, written interaction, normativity.

1. Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivoji yozma muloqot shakllarini tubdan o'zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va forumlarda yuzaga kelgan yangi diskurs turi — internet nutqi — an'anaviy yozma nutq me'yorlariga, xususan, punktuatsiya tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon tilshunosligida internet tilining lingvistik xususiyatlari David Crystal tomonidan asosli ravishda tahlil qilingan bo'lib, u internet nutqini og'zaki va yozma nutq oralig'idagi gibril hodisa sifatida talqin qiladi. Uning *Language and the Internet* asarida punktuatsiyaning ekspressiv va pragmatik kengayishi alohida qayd etiladi [3].

O'zbek tilshunosligida esa punktuatsiya nazariyasi asosan sintaktik tamoyil asosida ishlab chiqilgan. Abdug'ani G'ulomov tinish belgilarining grammatik tabiatini asoslab bergan [1], Abduvali Madvaliyev va Rahmatulla Qo'ng'urov esa ularning sintaktik hamda uslubiy xususiyatlarini tahlil qilganlar [2; 5].

Mazkur maqolaning maqsadi — raqamli diskurs sharoitida o'zbek punktuatsiyasining transformatsion jarayonlarini aniqlash va ularning nutqiy-pragmatik mohiyatini ochib berishdir.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1) **Diskursiv tahlil** — ijtimoiy tarmoqlardagi yozma matnlarni o'rganish;
- 2) **Struktur-sintaktik tahlil** — punktuatsiya vositalarining grammatik vazifasini aniqlash;
- 3) **Pragmatik tahlil** — tinish belgilarining emotsional va kommunikativ yuklamasini baholash;

- 4) **Solishtirma metod** — normativ yozma nutq bilan internet nutqini qiyoslash [1; 4].

Empirik material sifatida ochiq internet yozishmalari va postlardan olingan namunalardan foydalanildi.

3. Natijalar

3.1. Punktuatsiyaning soddalashuvi

Internet nutqida eng ko‘p kuzatiladigan hodisa — tinish belgilarining tushirib qoldirilishidir:

normativ:

Bugun yig‘ilish bo‘ladi, soat uchda boshlanadi.

internet

varianti:

bugun yig‘ilish boladi soat uchda boshlanadi

Bu holatda vergul va nuqta qo‘llanmagan. Sintaktik chegaralar kontekst orqali anglashiladi. Bu jarayon kommunikativ tezkorlik tamoyili bilan izohlanadi.

3.2. Punktuatsiyaning ortiqcha qo‘llanishi

Aksincha, ayrim belgilar (so‘roq va undov) ortiqcha qo‘llanadi:

Rostdanmi???

Zo‘r!!!

Normativ yozuvda bitta belgi yetarli hisoblanadi [4]. Internet diskursida esa ko‘paytirilgan belgi kuchli emotsional urg‘u vazifasini bajaradi. Bu hodisa punktuatsiyaning pragmatik kengayishi sifatida baholanishi mumkin.

3.3. Ko‘p nuqta va tire funksiyasining kengayishi

Ko‘p nuqta (...) internet nutqida juda faol:

Balki kelarman... bilmadim...

An'anaviy yozma nutqda ko'p nuqta fikrning tugallanmaganini bildirsa, internet diskursida u shubha, ikkilanish yoki yumshatish strategiyasini ifodalaydi.

Shuningdek, tire dialogik muloqotda qisqa javoblarni ajratish vositasi sifatida ishlatiladi:

— Kelyapsanmi?
— Ha.

Bu yerda tire kommunikativ rollarni belgilaydi.

3.4. Nuqta qo'llanishining pragmatik o'zgarishi

Internet yozishmalarida qisqa javob oxiriga qo'yilgan nuqta ba'zan sovuqqonlik yoki rasmiylikni anglatadi:

Yaxshi.

Nuqtasiz variant:
Yaxshi

Ikkinchi variant ko'proq neytral yoki samimiy ohangni bildiradi. Demak, nuqta internet diskursida qo'shimcha pragmatik ma'no kasb etmoqda.

3.5. Emoji va punktuatsiya munosabati

Emojilar ba'zan tinish belgilarining vazifasini qisman o'z zimmasiga oladi:

Yaxshi 😊👍

Bu holatda undov belgisi qo'llanmasa ham, ijobiy emotsiya ifodalanadi. Natijada punktuatsiyaning intonatsion vazifasi vizual vosita bilan to'ldiriladi.

4. Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, internet diskursida punktuatsiya ikki yo'nalishda transformatsiyalanmoqda:

Normativ soddalashuv — vergul va nuqtaning tushirilishi;

Ekspressiv kengayish — undov, so'roq va ko'p nuqtaning ortiqcha qo'llanishi.

An'anaviy nazariyada punktuatsiya sintaktik tamoyil asosida izohlanadi [1]. Biroq net-lingvistika sharoitida pragmatik tamoyil yetakchi o'ringa chiqmoqda. David Crystal internet tilini yozma nutqning yangi bosqichi sifatida baholab, unda punktuatsiya ko'proq emotsional va diskursiv vazifa bajarishini ta'kidlaydi [3].

O'zbek tilida ham shunga o'xshash jarayon kuzatilmoqda. Biroq rasmiy yozishmalarda normativ qoidalarga rioya qilish talabi saqlanib qolmoqda. Demak, internet punktuatsiyasi funksional jihatdan noformal diskurs doirasida amal qiladi.

5. Xulosa

Raqamli diskurs sharoitida o'zbek yozma nutqida punktuatsiya tizimi sezilarli transformatsiyaga uchramoqda. Bu jarayon:

- sintaktik soddalashuv;
- pragmatik yuklamaning ortishi;
- emotsional-ekspressiv kengayish;
- vizual vositalar bilan integratsiyalashuv orqali namoyon bo'lmoqda.

Puntuatsiya internet nutqida faqat grammatik vosita emas, balki kommunikativ strategiya elementiga aylanmoqda. Shu bois kelgusida o'zbek internet diskursida punktuatsiya qo'llanishini korpus asosida tizimli o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov A. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent: Fan, 1961.[1]
2. Madvaliyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.[2]

3. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.[3]
4. O'zbek tilining imlo qoidalar. – Toshkent, 1995 (so'nggi tahrir).[4]
5. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. – Toshkent: Universitet, 1992.[5]
6. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. T.: "Akademnashr" 2015.
7. Shoniyozova G. B. O'zbek punktuagrammalarining pragmatolingvistik aspektida o'rganilishi va uslubiy vazifa bajarish talqinlari // O'zbek filologiyasi: muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Anorbooks, 2023. — B. 36–39.

Muallifga bog'lanish uchun ma'lumotlar

Muallifning ismi, sharifi	Elektron pochtasi	Telefon raqami
Shoniyazova Gulshoda Baxromovna	<u>Shoniyozovagulshoda@gmail.com</u>	91 947 00 77

8.